

MEHNAT MIGRATSIYASINI TARTIBGA SOLISHNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

Erkinova Marjona Sobirjon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti, 1-kurs talabasi

ORCID: 0009-0001-1770-3082

E-mail: il2025-10184@uwed.ac.uz

Murodova Durdon Oybekovna

Ilmiy rahbar, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

"Xalqaro huquq va ommaviy huquqiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20326388>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehnat migratsiyasi sohasida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar tahlil qilindi va migratsiya sohasini tartibga solishga doir xalqaro huquqiy asoslar o'rganildi, shuningdek ushbu sohada uchrayotgan huquqbuzarliklarni kamaytirish, insonlarda o'z huquqlarini bilishi, ularni amalda qo'llay olishi va himoya qilishini mustahkamlashga oid takliflar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: migratsiya, mehnat migratsiyasi, mehnat migranti, migrant huquqlari

Annotation. This article analyzes numerous studies conducted in the field of labor migration and examines the international legal frameworks regulating migration. It also proposes measures aimed at reducing violations in this sphere, increasing people's awareness of their rights, improving their ability to exercise these rights in practice, and strengthening their protection.

Keywords: migration, labor migration, labor migrant, migrant rights

Аннотация. В данной статье проанализированы многочисленные исследования, проведённые в сфере трудовой миграции, а также изучены международно-правовые основы регулирования миграционных процессов. Кроме того, предложены меры, направленные на снижение правонарушений в данной области, повышение осведомлённости населения о своих правах, развитие навыков их практического применения и укрепление механизмов их защиты.

Ключевые слова: миграция, трудовая миграция, трудовой мигрант, права мигрантов.

Mehnat migratsiyasi bugungi globallashuv sharoitida eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan biri sifatida ko'plab mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham dolzarb masalaga aylangan. Fuqarolarning xorijiy davlatlarga vaqtincha mehnat faoliyati uchun chiqishi ularning iqtisodiy daromadlarini oshirish bilan birga, turli ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltiradi. Migrantlar ko'pincha huquqbuzarliklar, ekspluatatsiya, noqonuniy mehnat shartlari, hujjatlarning soxtalashtirilishi, yashash va ishlash ruxsatnomalarining buzilishi kabi holatlarga duch keladilar. Shu bois mehnat migratsiyasi jarayonida uchraydigan huquqbuzarliklar va ular uchun belgilangan jazo choralari o'rganish, shuningdek milliy qonunchilikda migrantlarning huquqiy himoyasi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2026-yil 15-yanvar kuni o'tkazilgan yig'ilishda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xorijda o'tkazilayotgan turli reydlar jarayonida mehnat migrantlari huquqlarining buzilishi holatlariga e'tibor qaratdi. Tashqi ishlar vazirligi tomonidan bunday vaziyatlarga berilayotgan javoblar ko'pincha rasmiy eslatmalar bilan cheklanib qolayotganini qayd etildi. Shuningdek, Prezident elchilar va konsullar har bir holat yuzasidan malakali yuridik yordam

ko'rsatishi hamda xorijdagi O'zbekiston fuqarolarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi faoliyatini yanada kuchaytirishi lozimligini ta'kidladi.¹

Mehnat migratsiyasi masalalarida O'zbekiston va butun dunyo bo'ylab ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, adabiyotlarda ushbu jarayonning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlar alohida yoritilgan. Masalan, "Global migratsiya sharoitida migrantlar huquqlari: xalqaro va milliy kafolatlar tahlili" maqolasida BMTning "Migrant ishchilar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi konvensiyasi (ICRMW)² va "Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya bo'yicha Global kelishuv" (GCM)³ o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinib, Tunis misolida konvensiya ratifikatsiyasi oldidagi to'siqlar ko'rsatib berilgan⁴. Muallif GCMning milliy qonunchilikni takomillashtirishdagi imkoniyatlarini ochib berib, u migrantlar huquqlarini kengroq himoya qilish va ratifikatsiya jarayonidagi huquqiy-siyosiy to'siqlarni yumshatishda muhim vosita bo'lishi mumkinligini taklif etadi.

Bassina Farbenblumning tadqiqoti mehnat migrantlarini yollash jarayonidagi huquqbuzarliklarni tahlil qiladi. Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda xususiy yollash agentliklari va vositachilar tomonidan qo'llaniladigan yuqori to'lovlar, soxta shartnomalar va hujjatlarni yashirish migrantlarni qarzga botirib, ularni majburiy mehnatga majbur qilmoqda. Muallif huquqiy javobgarlikni kuchaytirish uchun "rights-based recruitment governance framework"ni taklif etadi. Bu yondashuv migrantlarning huquqlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash, davlat va xususiy agentliklarning javobgarligini oshirish, hamda migrantlarning o'zlari siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishini ta'minlashni nazarda tutadi.⁵

Costello va Manning "Border Justice" maqolasi migratsiya nazorati jarayonida inson huquqlarining muntazam buzilishi va javobgarlik mexanizmlarining yetarli emasligini yoritadi. Mualliflar Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlarning tashqi migratsiya nazoratini xususiy kompaniyalarga topshirishi huquqiy javobgarlikni yanada murakkablashtirayotganini ko'rsatadilar. Ularning fikricha, bu jarayon ko'pincha "xalqaro impunity rejimi"ni shakllantirib, migrantlarning huquqlarini himoya qilishni amalda imkonsiz qiladi. Shuningdek, maqolada migratsiya nazoratidagi huquqbuzarliklarni xalqaro jinoyat sifatida baholash zaruriyati ham ko'tariladi.⁶

¹ «Elchilar "kabinet diplomatiyasidan" voz kechishi kerak – prezident» // Gazeta.uz. 2026 yil 15-yanvar. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/15/reids/> (murojaat qilingan sana: 24.03.2026)

² *International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families*, UN General Assembly Resolution 45/158, 18 December 1990. United Nations Human Rights Office of the High Commissioner. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-protection-rights-all-migrant-workers>

³ Robert J. Vitillo, *Intervention at the International Dialogue on Migration 2017: Strengthening International Cooperation on and Governance of Migration towards the Adoption of a Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration in 2018*, Intersessional Workshop, United Nations Headquarters, New York, 18–19 April 2017. International Catholic Migration Commission. https://www.icmc.net/resource/strengthening-international-cooperation-on-and-governance-of-migration-towards-the-adoption-of-a-global-compact-for-safe-orderly-and-regular-migration-in-2018/?gad_source=1&gad_campaignid=12527980043&gbraid=0AAAAACRvLKzVlvNjvViz3755cPbVnBKdS&gclid=CjwKCAiAzZ_NBhAEEiwAMtqKy7MN6kVfg5Inbf-mkOZ60yKTHNAzyXvvkIU-TGcAB4BdS7ju6ByTuhoCoIIQAvD_BwE

⁴ Maftuna Xodjiyeva, "Global migratsiya sharoitida migrantlar huquqlari: xalqaro va milliy kafolatlar tahlili" Siyosat va jamiyat, no.8 (2025): 41-49. <http://www.uznauka.uz/>

⁵ Bassina Farbenblum, *Governance of Migrant Worker Recruitment: A Rights-Based Framework for Countries of Origin*, *Asian Journal of International Law* 7 (2017): 152–184. First published online 14 April 2016. <https://doi.org/10.1017/S2044251316000011>

⁶ Cathryn Costello and Itamar Mann, *Border Justice: Migration and Accountability for Human Rights Violations*, *German Law Journal* 21 (2020): 311–334. <https://doi.org/10.1017/glj.2020.27>

Mazkur maqolaning maqsadi mehnat migratsiyasi jarayonida uchraydigan huquqbuzarliklar turlarini aniqlash, milliy qonunchilikda migrantlarning huquqiy himoyasi kafolatlarini o'rganish va amaliyotda ushbu kafolatlarning qanchalik samarali ishlashini tahlil qilishdan iboratdir. Shu orqali migrantlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va mavjud qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

Mehnat migratsiyasi global jarayon sifatida migrantlarning huquqlarini himoya qilish va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarini dolzarb qilib qo'yadi. Xalqaro huquqiy normalar bu borada asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. BMTning 1990-yilda qabul qilingan Migrant Ishchilar va ularning oilalari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyasi⁷ migrantlarning kamsitilmaslik, erkin harakatlanish va huquqiy himoya huquqlarini belgilaydi. Shu bilan birga, 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt⁸ ham migrantlarning huquqiy himoyasini mustahkamlaydi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakt⁹ esa ta'lim va sog'liqni saqlash huquqlarini kafolatlaydi. Bu hujjatlar nazariy jihatdan yetarli kafolatlarni belgilasa-da, amaliyotda migrantlar ko'pincha hujjatlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar, ish haqi to'lanmasligi va ijtimoiy himoya yetishmasligi kabi muammolarga duch keladi.

ILO tomonidan qabul qilingan 97-konvensiya (1949)¹⁰ va 143-konvensiya (1975)¹¹ mehnat migratsiyasi jarayonida teng huquqlarni ta'minlash, noqonuniy migratsiya oqibatlarini kamaytirish va migrant ishchilarni diskriminatsiyadan himoya qilishni ko'zda tutadi. ILOning mehnat migratsiyasi bo'yicha muntazam hisobotlari migrantlarning eng ko'p duch keladigan muammolari — ish haqi to'lanmasligi, hujjatlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy himoya yetishmasligini qayd etadi. IOMning O'zbekistonga oid hisobotlari esa migrantlar uchun axborot markazlari, huquqiy maslahat xizmatlari va sug'urta mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Jahon Banki statistikasi migrantlar yuborgan pul o'tkazmalari ko'plab davlatlar iqtisodiyotida muhim rol o'ynashini ko'rsatadi, bu esa migrantlar huquqlarini kafolatlashni strategik vazifa sifatida belgilaydi.

Mehnat migratsiyasi bo'yicha xalqaro tadqiqotlar migrantlarning huquqlarini himoya qilishda nazariya va amaliyot o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatadi. N. Sedacca Buyuk Britaniyada "hostile environment" siyosati migrantlarning, ayniqsa ayollarning

⁷ *International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families*, UN General Assembly Resolution 45/158, 18 December 1990. United Nations Human Rights Office of the High Commissioner. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-convention-protection-rights-all-migrant-workers>

⁸ *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt*, December 16, 1966. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. LEX.UZ. <https://lex.uz/uz/docs/-2640479>

⁹ *Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt*, December 16, 1966. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. LEX.UZ. <https://lex.uz/docs/-2686000>

¹⁰ International Labour Organization, *Migration for Employment Convention (Revised), 1949 (No. 97)*, adopted at Geneva, 32nd ILC session, 1 July 1949, entered into force 22 January 1952. NORMLEX Information System on International Labour Standards. https://normlex.ilo.org/dyn/nrmlx_en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO:12100:P12100_INSTRUMENT_ID:312242:NO

¹¹ International Labour Organization, *Migrant Workers (Supplementary Provisions) Convention, 1975 (No. 143)*, adopted at Geneva, 60th ILC session, 24 June 1975, entered into force 9 December 1978. NORMLEX Information System on International Labour Standards. https://normlex.ilo.org/dyn/nrmlx_en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO:12100:P12100_INSTRUMENT_ID:312288:NO

huquqlarini cheklayotganini ta'kidlaydi.¹²R. Singh va hamkorlari esa xalqaro huquqiy mexanizmlar va milliy siyosat o'rtasidagi tafovutlarni ko'rsatib, migrant huquqlarini amalda himoya qilishda katta bo'shliq mavjudligini ta'kidlaydi.¹³

Ushbu tadqiqot mehnat migratsiyasi jarayonida yuzaga keladigan huquqbuzarliklar borasida olib borilgan tadqiqotlar, xalqaro huquqiy hujjatlarni tahlil qilishga qaratildi. Ko'plab tadqiqotlar hamda xalqaro huquqiy hujjatlar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, migrantlar ko'pincha ish haqi to'lanmasligi, mehnat shartnomasining buzilishi, hujjatlarning soxtalashtirilishi va diskriminatsiya kabi huquqbuzarliklarga duch kelmoqda. Bu holatlar xalqaro konvensiyalarda belgilangan huquqiy tamoyillarga zid bo'lib, migrantlarning huquqiy himoyasi amaliyotda yetarli darajada ta'minlanmayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan BMTning Migrant Ishchilar Konvensiyasi (1990), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt (1966), hamda ILOning 97 va 143-konvensiyalari migrantlar huquqlarini kafolatlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, amaliyotda ushbu kafolatlarning samaradorligi past bo'lib, jazo choralarning yetarli darajada qo'llanilmasligi huquqbuzarliklarning takrorlanishiga olib kelmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi taklif ilgari surildi:

Huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida rasmiy onlayn kurslar tashkil etish va raqamli sertifikatlar berish. Ushbu taklif bugungi raqamli texnologiyalar muhitida juda muhim hisoblanadi. Chunki, hozirda ko'plab Instagram, Telegram, You Tube kabi ijtimoiy tarmoqlar keng qamrovli foydalanuvchilarga ega. Masalan, internet saytda ayni bir rasmiy nom ostida (masalan, Migrant Rights.uz) sahifa ochish orqali jamiyatga doimiy zarur bo'lib kelgan holatlar asosida kurslar va kursga oid mavzular tuzish va ularni ichiga kerakli barcha resurslarni joylashtirish, har bir mavzu yuzasidan fikrlashga undaydigan huquqiy holatlar bo'yicha masalalar ko'rinishida topshiriqlar qismi qo'shish va har bir kurs bo'yicha barcha mavzular muvaffaqiyatli yakunlanganidan so'ng foydalanuvchilarga rasmiy sertifikatlar taqdim etish bilan insonlarda huquqiy savodxonlikni oshirish mumkin. Natijada jamiyatning ko'pchilik qismi o'z huquqlarini bilishi va ularni amalda qo'llash bo'yicha huquqiy madaniyatga ega bo'lishlari mumkin. Shuningdek, xorijga ishlash istagida ketayotgan migrantlar ham ushbu kurslar orqali chet elda o'z huquqlarini qanday himoya qilish mumkinligini bilib olishlari mumkin.

Yuqoridagi taklif nafaqat mehnat migratsiyasi sohasida, migrantlarning huquqiy himoyasini mustahkamlashda, balki, jamiyatda uchraydigan huquqbuzarliklarni kamaytirishda, insonlarda o'z huquqlarini bilishi va ularni himoya qila olishida bugungi texnologiyalar davrida muhim rol o'ynashi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. BMT "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (1966)
2. BMT "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (1966)

¹² Natalie Sedacca, *Migrant Work, Gender and the Hostile Environment: A Human Rights Analysis*, *Industrial Law Journal* 53, no. 1 (March 2024): 63–93. First published online 13 January 2024.

<https://doi.org/10.1093/indlaw/dwad034>

¹³ Raghuvir Singh, Mona Shri Srivastava, Rajesh Kumar Vishwkarma, and Kaneez Fatima, *Protecting the Rights of Migrant Workers: Bridging Legal Promises and Global Realities*, *LEX LOCALIS – Journal of Local Self-Government* 23, no. S4 (2025): 1–30. ISSN 1581-5374, E-ISSN 1855-363X. <https://doi.org/10.52152/800976>

3. BMT “Migrant ishchilar va ularning oila a’zolari huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi konvensiya (1990)
4. “Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya bo’yicha Global kelishuv” (2017)
5. ILO, 97-konvensiyasi (1949)
6. ILO, 143-konvensiyasi (1975)